

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 247 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Iloxmonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyrovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срождидинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....	166
Sattorova Nasiba G'anjion qizi	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'anjion qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормаматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurta qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	



Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики	237
Худайбергенова Адалат Нѣматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиева Хаида Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	



O'ZBEKISTON SANOATINING IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH



Mamanazarov Oybek Shomurodovich

Renessans ta'lim universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası professori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tahlil asosida O'zbekiston sanoatining milliy iqtisodiyotdagi o'rni baholanadi, uning hozirgi holati ko'rib chiqiladi va yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: sanoat, tarkibiy o'zgarishlar, texnologiya, modernizatsiyalash, diversifikatsiya, investitsiya, tahlil.

Аннотация: В данной статье на основе анализа оценивается роль промышленности Узбекистана в национальной экономике, рассматривается её текущее состояние и предлагаются рекомендации по дальнейшему развитию.

Ключевые слова: промышленность, структурные изменения, технологии, модернизация, диверсификация, инвестиции, анализ.

Abstract: Based on analysis, this article evaluates the role of Uzbekistan's industry in the national economy, examines its current state, and offers suggestions for its further development.

Key words: gindustry, structural changes, technology, modernization, diversification, investment, analysis.

KIRISH

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda davlatning roli, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish, sanoat tarmoqlariga ta'sir etuvchi tashqi salbiy omillarni bartaraf etish, eksportni rag'batlantirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish va moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish masalalaridan iborat. Ushbu jarayonlar bevosita qonuniy-huquqiy jihatlar va institutsional o'zgarishlarga asoslangan holda davlat tomonidan tartibga solinishi lozim.

Umuman olganda, sanoat Respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati, aholi ehtiyojlarini qondirishdagi o'rni va yuqori darajadagi ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan o'sishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan yoki yetishtirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklatura ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalash jarayonlari takomillashadi.

Sanoat, jahonda iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirok etayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari, fan va texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoati, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlari kabi sohalarni yuksak darajada rivojlantirishni talab etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishdagi o'rnining ahamiyati ilmiy doiralarda doimo tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, ushbu yo'nalishda xorijlik olimlardan Yu. Rodionov, R. S. Porter, D. Deverüks, B. Roberts va R. N. Nureevlar tomonidan qator ilmiy yangiliklar yaratilgan bo'lsa, mahalliy olimlardan Y. A. Abdullayev, A. Abduhamidov, U. Muxitdinov, A. A. Ortiqov, X. Ishbutaeva, Sh. Nizomova, E. X. Mahmudov va M. Isoqovlar sanoat sohasiga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Jumladan, A. Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ni o'rganib chiqqan. M. P. Narziqulov "Sanoatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligini" ta'kidlagan. E. X. Mahmudov esa "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari, birinchi navbatda, byudjet, soliq, pul-kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish" zarurligiga alohida urg'u bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash kabi metodlardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, 2025-yil 1-aprel holatiga respublika bo'yicha 56,3 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida quyidagicha taqsimlangan:

- 11,4 mingta korxona yoki umumiy sonning 20,2 %i oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga,
- 8,1 mingtasi yoki 14,3 %i boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga,
- 5,7 mingtasi yoki 10,1 %i kiyim ishlab chiqarishga,
- 4,5 mingtasi yoki 8,0 %i mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga,
- 3,9 mingtasi yoki 6,9 %i mebel ishlab chiqarishga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni, yillar kesimida

Sanoat korxonalari	Yanvar–mart				
	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni	85 525	92 064	75 578	62 807	56 321
Shundan:					
Yirik korxonalar	870	830	794	757	972
Kichik tadbirkorlik subyektlari	84 655	91 234	74 784	62 050	55 349
Jami yangi tashkil etilgan korxonalar soni	5 614	4 242	3 987	3 596	2 314
Shundan:					
Yirik korxonalar	9	5	-	5	3
Kichik tadbirkorlik subyektlari	5 605	4 237	3987	3 591	2 311

2025-yilning yanvar–mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaruvchi sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 174,9 trln so'mni yoki jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushning 82,7 foizini tashkil etdi. Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 18,3 trln so'm (8,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash hamda havoni konditsiyalashda 17,0 trln so'm (8,0 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda esa 1,2 trln so'm (0,6 %) ulush qayd etildi (1-rasm).



Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta B, C, D, E sektorlardan tashkil topgan bo'lib:

- B – tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,
- C – ishlab chiqarish sanoati,
- D – elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,
- E – suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan iborat..

1-rasm. 2025-yil yanvar–mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibi

2025-yilning yanvar–mart oylarida respublika bo'yicha quyidagi asosiy mahsulotlar ishlab chiqarildi:

- 304,3 ming tonna avtomobil benzini (2024-yilning yanvar–mart oyiga nisbatan 15,6 %ga kamaygan),
- 166,0 ming tonna ip kalava (2,5 %ga oshgan),
- 36,5 mln litr pivo mahsulotlari (8,3 %ga oshgan),
- 363,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,7 %ga oshgan) ishlab chiqarilgan (2-jadval).

Sanoat tarmog'i yirik ishlab chiqarish instituti bo'lishi bilan birgalikda, aholining bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda Respublikamizdagi jami mehnat resurslarining 18,1 foizi aynan shu sohada band bo'lgan ishchi-xodimlar hissasiga to'g'ri kelgan.


Sanoat tarmog'ining bandlikni oshirishdagi yana bir muhim jihati – bu tarmoqning qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratishdagi faolligi hisobiga yuzaga chiqadi (2-rasm).

Ya'ni, qayta ishlovchi korxonalarning ko'payishi va ular tomonidan yaratilayotgan qo'shimcha qiymatning ortishi natijasida sanoatda band bo'lgan xodimlar soni ham ortib boradi. Bunday holat shuni ko'rsatadiki, qo'shimcha qiymat va qayta ishlash hajmining oshishi bilan sanoat tarmog'ida band bo'lganlar soni o'rtasida bevosita musbat bog'liqlik mavjud.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar–mart	2024-yil yanvar–mart	2025-yil yanvar– mart
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	54 205	84 707	89 848
Yuk avtomobillari, dona	557	720	915
Avtomobil dvigatellari, dona	44 195	63 192	70 020
Avtomobil benzini, ming tonna	385,3	360,6	304,3
Dizel yoqilg'isi, ming tonna	206,8	211,8	182,0
Ko'mir, ming tonna	989,1	968,9	1 213,3



Neft, ming tonna	195,5	179,1	160,8
Tabiiy gaz, mln kub.m	12 321,5	11 644,5	11 323,0
Gaz kondensati, ming tonna	319,5	327,4	296,6
Portlandsement, ming tonna	2 025,5	2 632,7	3 646,8
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt·soat	20 061,8	21 660,6	21 589,6
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	19 928,1	20 102,6	16 544,9
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	133,7	1 558,0	5 044,7
Issqlik energiyasi, ming Gkal	8 270,8	8 627,6	7 834,8



2-rasm.

2020–2024-yillarning yanvar–iyun oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati

Mustaqillik yillarida mashinasozlik va avtomobilsozlik, kimyo va neft-kimyo, oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoati, farmatsevtika va mebelsozlik, telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar jadal taraqqiy etib, sanoatimizning lokomotivlariga aylangan. Bularning barchasi xalqimizning yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'zimizda ishlab chiqarilayotgan arzon va sifatli tovarlar hisobidan qondirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar–mart oylarida quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi:


- 32 208 dona “Cobalt” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,6 %ga oshdi),
- 1 996 dona “Chery” (33,2 %ga kamaydi),
- 6 150 dona “KIA” (23,5 %ga oshdi),
- 22 409 dona “Damas” (18,0 %ga oshdi),
- 7 426 dona maxsus yengil avtomobillar (20,8 %ga oshdi),
- 10 513 dona “Tracker” (12,6 %ga kamaydi),
- 11 774 dona “Onix” (41,2 %ga oshdi),
- 1 885 dona “Haval” (9,2 martaga oshdi),
- 2 913 dona “BYD” avtomobillari ishlab chiqarildi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi soha korxonalarining mablag' va resurslari ortib borayotganidan dalolat beradi. Davlat tomonidan soliq yukini kamaytirish, byudjet–soliq siyosatini erkinlashtirish, soliqlar tizimini soddalashtirish borasida olib borilayotgan maqsadli va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlovchi siyosat YalMning oshishiga hamda undagi sanoat mahsulotlari ulushining ortishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston sanoat majmuasida qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar samarasi, shuningdek, jahon bozorida sanoat mahsulotlariga — xususan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoati mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi pirovard natijada sanoat ishlab chiqarishining qo'shimcha o'sishiga olib keldi (3-rasm).

Yuqorida qayd etilgan sohalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishni va ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanishni talab etadi.



3-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajm

Shu bois, sanoat korxonalariga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish va raqamlashtirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillarimiz natijasida shuni aytishimiz mumkin, o'tgan davr mobaynida sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sanoatning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Biroq hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmoqda, deb ayta olmaymiz. Jumladan:

- sanoat majmuasiga kiritilgan investitsiyalar asosan ichki bozor uchun mahsulot yetkazib berish bilan cheklanmoqda;
- sanoat korxonalarida mavjud kapitalning moddiy va ma'naviy jihatdan eskirganligi tufayli mahsulot yaratishda tannarx yuqori darajaga chiqmoqda;
- elektr energiyasi va qo'l mehnatidan foydalanish darajasi qisqarmagan.

Mazkur muammolar sanoatda tarkibiy investitsion siyosatni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etadi.

Yuqoridagi tahlil va fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni taklif etish mumkin:

- investitsion jozibadorlikni oshirish, ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish;
- korxonalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- diversifikatsiya faoliyatini takomillashtirish orqali mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–295-son Qarori, 2024-yil 15-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi PQ–397-son Qarori, 2023-yil 18-dekabr.



3. A. Ortiqov. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 236 b.
4. Strategiya dalneyshyego povysheniya konkurentosposobnosti natsional'noy ekonomiki: materialy IV Foruma ekonomistov / otv. red. M. P. Narzikulov. – Toshkent: Vaqf nashriyoti, 2012. – B. 8.
5. E. X. Mahmudov, A. Ortiqov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini. – “Hamkor”, 2010-yil 7-fevral.
6. I. T. Abdukarimov va boshq. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va hudud dunyosi, 2003. – 256 b.
7. A. U. Burxonov. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida sanoat korxonalarini rivojlantirishning metodologik jihatlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №5, sentabr–oktabr, 2015-yil.
8. D. G. Mamajonov. O'zbekistonda sanoat tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №3, may–iyun, 2018-yil.
9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti.
10. kvarts.uz – Sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish bo'yicha media-tur.
11. energonazorat.uz – Sanoat kooperatsiyasi samaradorligi oshmoqda.
12. vodiymedia.uz – Shavkat Mirziyoyev: tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish davr talabi.
13. gazeta.uz – O'zbekistonda tekstil sanoati yangiliklari.
14. biznes-daily.uz – O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarish resurslari.
15. evu.uz – Innovatsiyalar: sanoat korxonalari samaradorligini oshirish mexanizmlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
